

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 27-noyabr, chorshanba,
137 (24.014)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Bolani biror zararli mashg‘ulotdan cheklamoqchi bo‘lsangiz, o‘rniga boshqa foydali mashg‘ulotni tavsiya qilishni o‘rganing

Xalq deputatlari viloyat Kengashining FARMOYISHI

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi, yettinchi chaqiriq, ikkinchi sessiyasi **2024-yil 28-noyabr** kuni chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

Xalq deputatlari viloyat kengashi doimiy komissiyalarini tuzish va shaxsiy tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida;

xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashida ish yuritish bo‘yicha yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida;

xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi kotibiyati to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida;

xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida;

viloyat hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida;

viloyat hokimining ayrim qarorlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

3. Mazkur farmoyish ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

Kengash raisi **SH.NEGMATOV**

2024-yil 25-noyabr

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bir guruh xitoylik tadbirkorlarni qabul qildi.

Xitoylik tadbirkorlar Samarqandda ishlamoqchi

Tadbirkorlar orasida nafaqat Xitoy Xalq Respublikasi, balki butun dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallab turgan nufuzli kompaniyalar vakillari borligi uchrashuvning konstruktiv va aniq takliflar asosida o‘tishini ta’minladi.

E.Turdimov keyingi paytda Samarqand viloyati Xitoy provinsiyalari va tadbirkorlari bilan faol hamkorlik qilayotganiga urg‘u berib, bu ikki tomon uchun manfaatli bo‘layotganini ta’kidladi. Bunda albatta, yurtimizda yaratilgan qulay investitsiya muhiti, xorijlik tadbirkorlar va kompaniyalarga berilayotgan imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega.

Uchrashuvda energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikda yashil energetika, mini GESlar qurish, butlovchi qismlar tayyorlash, konditsioner va muzlatkichlar uchun kompressorlarni mahalliylashtirish bo‘yicha takliflar bildirildi. Chin o‘lkasi ishbilarmonlari Samarqand iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga tayyorligini ma’lum qildi.

– Dastlabki taassurotlarimiz shunday – Samarqand bizga juda yoqdi,



viloyat rahbari esa hududga sarmoya kiritib, bundan manfaat ko‘rishimizga bizni ishontira oldi, - deydi "Beijing Yanling Jiaye Intelligent Technology Co. Ltd" kompaniyasi vakili Chjan Xao. – Taklif etilgan loyihalar, maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatimiz bor va biz hamkorlikka tayyormiz.

Xitoylik tadbirkorlar avvalo, hudud-lar infratuzilmasi va imkoniyatlarini o‘rganib, so‘ngra istiqbolli loyihalarni ishlab chiqishga kelishib oldilar.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Abdurahim ERKAYEV, siyosatshunos olim:

- Buyuk davlatlarning siyosati mohiyati o‘zgargan emas: jahon mamlakatlarini o‘ziga bo‘ysundirish, iqtisodiy qaram qilish va boyliklariga sherik bo‘lish.

Deputat minbari

Qonun ijodkorligi yangi asosda

18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yangi tarkibdagi birinchi majlisida davlat rahbari ishtirok etib nutq so‘zladi.
Bir qarashda oddiy jarayon - saylov o‘tdi, yangi yoki qayta ish boshlaganlarga Prezident muvaffaqiyat tiladi.



Lekin jiddiyroq o‘ylab ko‘rilsa, masala mohiyatan ko‘p narsani anglatishi oydinlashadi. Zotan, birinchi navbatda parlament quyi palatasining yangi tarkibida har uch deputatdan biri ilmiy darajaga ega. Birgina shu misolda xalqimiz ilm kishilariga ko‘proq ishonch bildirganini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, Qonunchilik palatasining yangi tarkibi mamlakatdagi barcha qatlamlar manfaatlarini himoya qilishi, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, tabiiyki, xalqimiz farovonligi va mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunki qonunchilikdagi yangiliklar sabab parlamentdagi gender tenglik barobarida yoshlar, nogironligi bo‘lgan kishilar ham deputatlikka saylangan.

GALDAGI VAZIFALAR QANDAY?

Prezidentning parlament quyi palatasi yig‘ilishidagi ishtiroki faqat rasmiyatchilikka asoslangan yig‘ilish emas. Chunki davlat rahbari nutqida biz, deputatlar uchun juda muhim bo‘lgan yo‘nalishlar belgilab berilgani bilan birga, har bir deputatning ko‘nglidan o‘tib turgan o‘y-masalalar haqida ham aytildi.

Misol uchun, parlament va deputatlik nazorati ijtimoiy soha bilan cheklanib qolmoqda. Bu deputatlar faoliyatiga bildirilgan e’tirozlardan biri.

Umuman, Prezident o‘tgan chaqiriqdagi deputatlar ishiga baho berib, parlament a’zolarining yangi tarkibi oldida turgan muammolarni sanab o‘tdi. Jumladan, vazirliklarning samarasiz ishlashi, renovatsiya to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi, majburiy tibbiy sug‘urta, qonunchilikni JSTga muvofiqlashtirish va boshqalar.

E’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydigan masala shuki, davlat rahbari quyi palataning yangi tarkibi qayd etilgan masalalar bo‘yicha yangicha ishlashiga umid bildirdi.

YANGICHA ISHLASH SHART

Prezident deputatlarni vakolatlari doirasida o‘z okruglaridagi tuman va shahar darajasida so‘rov va talabni hech tortinmasdan kuchaytirishga chaqirdi.

Aytish mumkinki, bu kabi takliflar parlamentning tom ma’noda xalq uyi bo‘lishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Bundan tashqari, aytib o‘tilgan yana bir tashabbus - qo‘mitalar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlarini tashkil etish ham ko‘pchilikda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Chunki Qonunchilik palatasining fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikda ishlash masalasi kun tartibiga birinchi marta chiqarilyapti.

Aslida davlat rahbarining parlamentdagi nutqi mutlaqo yangicha ishlash uchun asos bo‘ldi, deyish mumkin. Oddiy misol, birinchi galda palataning davlat budjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirishning vaqti-soati kelgani, jumladan, hukumatning davlat budjetiga doir barcha hisobotlarini palataga faqat Budjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyotiga o‘tish kerakligini ta’kidladi.

Qonun loyihalarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish jarayonlariga sun’iy intellektning joriy qilinayotgani ham bugungi deputat kechagisidan farq qilishini taqozo qilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz farovonligi, yurtimiz ravnaqiga qaratilgan islohotlar negizi bo‘lgan qonun hujjatlari ham zamon talablari darajasida bo‘lishi choralari ko‘rilmoqda.

Diyor HUSANOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Munosabat

O‘zbekiston “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish tarafdori

O‘zbekiston aholisi 37 milliondan oshdi va har yili qariyb 1 millionga ko‘paymoqda. Puxta o‘ylangan rejalar va amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 100 milliard dollardan oshdi. Aholi jon boshiga hisoblaganda daromad 2018-yildagi 1600 dollardan 3 ming dollarga yaqinlashdi. Kambag‘allik darajasi keyingi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushdi, bu yil yana 100 mingdan ortiq oila kambag‘allikdan chiqarilishi hisobiga 9 foizga tushishi kutilmoqda. Ko‘p yillar davomida aholini qiynab kelgan elektr energiyasi yetishmovchiligi muammosiga barham berildi. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi hajmi 1,5 barobar o‘sib, 80 milliard kilovatt-soatga yetdi. Uch yilda umumiy quvvati 2,4 gigavatt bo‘lgan 9 ta yirik quyosh va shamol stansiyalari ishga tushirildi. Muqobil energiya ulushi o‘tgan yilga nisbatan ikki barobar ko‘paydi. Kelgusi yil mamlakatimizda 90 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, aholi va iqtisodiyot talablari to‘liq ta’minlanadi. Qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 25 gigavatga, ularning jami iste’moldagi ulushi 40 foizga yetkaziladi.

Bu osonlikcha erishiladigan raqamlar emas. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyot yo‘lining eng ustuvor vazifalarini aniq belgilab oldi va bu yo‘lda aholi farovonligini ta’minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish va rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish marralari ko‘zlangan. O‘zbekiston bu yo‘lda qanchalik murakkab bo‘lmasin ekologik barqarorlikni saqlab qolish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarini belgiladi.

Yurtboshimizning 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e’lon qilgani ham bejiz emas. Sir emas, hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlaridan aziyat chekmoqda. Insoniyatning sanoatni rivojlantirish maqsadida yerosti va yerusti tabiiy boyliklaridan xo‘jasizlarcha foydalanishi natijasida bugun iqlim o‘zgarishlari yuzaga keldi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq erroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko‘payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog‘lig‘iga zarar yetmoqda. O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab Orol dengizining qurib boshlashi tabiatning insonlarga ogohlantirishi ekanligini, bu xavfni vaqtida anglamadik. Bugun Orolning qurigan tubidan ko‘tarilayotgan tuz zarralari hatto Yevropa davlatlarigacha yetib bormoqda. Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi aholining salomatligida jiddiy o‘zgarishlar kuzatildi. Buning oldini olish, insonlar hayotini izga solish borasida birmuncha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bir necha yil oldin boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi ham bugun tom ma’noda ekologik barqarorlikni saqlashdagi muhim yechim bo‘lmoqda.

Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti tashkil etilishi, O‘zbekiston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiya bu boradagi ishlarning natijasi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari yilga nom berish bilan birga kelgusi yillardagi vazifalarga ham urg‘u berdi.

Jumladan, 2030-yilgacha havoga issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga kamaytirish, bu majburiyat 2050-yilga qadar yanada kengaytirilishi ham ekologik barqarorlikka e’tiborning namunasidir. Qolaversa, O‘zbekiston keyingi yillarda yashil energetikani rivojlantirishga intilayotgani tufayli bu soha iqtisodiyot drayverlaridan biriga aylanmoqda. Bu borada "yashil" energetika ulushini 40 foizgacha oshirish va Yevropaga yashil energiya yetkazish bo‘yicha ish olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari xalqaro tadbirlarda jahon ommasi e’tiborini iqlim o‘zgarishlari natijasida yuzaga keladigan xatarlar va uning oqibatlarini yumshatishga qaratmoqda. Jumladan, yaqinda Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida o‘tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP 29)da iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etish, transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xilligini saqlashda yagona yondashuvlar zarurligini ta’kidladi. Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yurtimizda BMTning innovatsion agrosanoat xabini yaratish, iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etishni va uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish tashabbuslarini taklif qildi.

Bu albatta, kelgusi yillarda iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan unumli foydalanish hisobiga iqtisodiy taraqqiyotga erishishning asosiy maqsadi bo‘ladi. Qabul qilinajak yil dasturida esa yashil texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

Yong‘in xavfsizligi oyligi

Qutqaruvchilar qanday tayyorlanadi?

Bugun ko‘pchilik favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganida qanday harakat qilish, hatto o‘z xavfsizligini ta’minlashni ham bilmaydi. Lekin shunday kasb egalari borki, ular ayni vaziyatlarda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa-da, boshqalarni qutqarish bilan shug‘ullanadi. Albatta, bu vazifani bajarish uchun ular maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘t va suvda toblanadi.



Respublikada yagona hisoblangan Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshlang‘ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida jurnalistlar qutqaruvchilar tayyorlanish jarayoni bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Samarqand shahrida joylashgan muassasa 8,5 gektar maydonni egallagan. Unda shu kunlarda respublikamiz favqulodda vaziyatlar tizimining kuch-qudratini ifoda etuvchi 22 toifadagi qutqaruvchilar tayyorlanadi.

Markazda alohida toifa mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun maxsus o‘quv binolari mavjud bo‘lib, har biri zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan. Jumladan, suvda qutqarish mashg‘ulotlari suv havzasida olib boriladi. Unda tinglovchilar maxsus qurilmalar yordamida suv tagida qutqaruv ishlarini o‘rganadi. O‘quv dasturi yakunida ular tabiiy sharoitlarda, loyqa va oqar suvlarda imtihon topshirib, egallagan bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadi.

— Keyingi vaqtda yurtimizda tez-tez kuzatilayotgan holat - fuqarolarni tashish transportida yong‘in yoki boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha ham o‘quv nuqtalari tashkil etilgan, - deydi markazning o‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik Sherali Tojiboyev. – Ularda qutqaruvchilar haqiqiy samolyot va boshqa transport vositalari bilan ishlaydi. Shu orqali real vaziyatlarga tayyor bo‘lib boradi. Umuman, o‘quv dasturi ham favqulodda vaziyatlar bo‘limlari kun tartibiga moslab tayyorlangan. Yaqin hududda favqulodda vaziyat sodir bo‘lsa, unga tinglovchilarimiz ham jalb qilinishi mumkin. Maqsadimiz, ular markazni qutqaruvchilik kasbi va hayotiga to‘liq tayyor holda tark etsin.

Markazda boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tayotganlar ikki oy, malaka oshirish tayyorgarligidan o‘tayotgan tinglovchilar esa bir oy o‘qitiladi. Har yili 2 ming nafardan ortiq qutqaruvchi tayyorlanadi.

Markazni ko‘zdan kechirish davomida xizmatchilarni ruhan chiniqtirishga mo‘ljallangan ruhiy to‘siq yo‘laklari, yopiq o‘q otish binosi, o‘quv yong‘in xavfsizlik qismi, ochiq va yopiq sport maydonchalarida olib borilayotgan mashg‘ulotlarni kuzatdik. Hatto o‘zimiz ham ularda ishtirok etib, qutqaruvchilik kasbining mashaqqatini his qilib ko‘rdik. Misol uchun, tog‘ sharoitida qutqaruv ishlarini olib borish mashg‘ulotlarida tinglovchilar skaladromga bir necha soniyalarda chiqib ketishiga ko‘zimiz o‘rgangan. Bu oson ish deb o‘ylaymiz. Ammo bir necha urunishdan keyin unga zarur tayyorgarliksiz chiqish imkonsiz ekanligini angladik.

— Qutqaruvchi istasa-istamasa ish faoliyatida turli ruhiy ta’sirlarga uchraydi, - deydi markaz boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Aziz Ochilov. – Insonlarning halok bo‘lishi bilan bog‘liq, oddiy inson tafakkuri ko‘tara olmaydigan vaziyatlar bo‘ladi. Biz tinglovchilarni shunday holatlarga tayyorlashga, ularni ham jismonan, ham ruhan chiniqtirishga alohida e’tibor qaratamiz. Buning uchun maxsus o‘quv kurslari va mutaxassislar bor. Qutqaruvchilik faoliyatida ruhiy bosim bir muammo bo‘lsa, fuqarolarning qutqaruv ishiga aralashishi va xalaqit berishi ikkinchi muammo hisoblanadi. Shu bilan bog‘liq og‘ir oqibatli holatlar yo‘q emas.

Ta’kidlanganidek, qutqaruvchining asosiy vazifasi insonlarning hayoti va sog‘ligini himoya qilish. Ikkinchi vazifa — ofat hududi kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik. Aytaylik, yong‘in sodir bo‘lganida, ular birinchi navbatda o‘tni o‘rab olish chorasini ko‘radi. Bu vaziyatda esa ayrim fuqarolar ularni o‘tni o‘chirmayotganlikda ayblab, faoliyatiga xalaqit beradi. Markaz tinglovchilari shunday vaziyatlarda qanday yo‘l tutish va fuqarolarni to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha ham bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishmoqda.

A.ORZIQULOV.





“Daftar”da turgan AYOLLAR ISHLI BO‘LYAPTI

Shu yilning mart oyida Narpay tumanidagi Sarbozor qishlog‘ida ish boshlagan tikuvchilik fabrikasida 250 nafardan ziyod xotin-qiz mehnat qilyapti.

- Korxonamiz 160 nafar ishchi bilan faoliyat boshladi, - deydi “Narpay tex” mas’uliyati cheklangan jamiyati kadrlar bo‘limi boshlig‘i Hayotxon Siddiqova. – Bugun ularning soni 260 nafarga yetdi. Bu yerda 10 turdan ziyod trikotaj mahsulotlari tayyorlanadi. Korxona yiliga 3 millionta mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Korxonada mehnat qilayotganlarning aksariyatini shu paytgacha ishsizlik muammosi qiynab kelgan, nogironligi bo‘lgan va ijtimoiy “daftar”lar ro‘yxatida turganlar tashkil etadi.

- Navoiy shahridagi kollejda tikuvchilik yo‘nalishida o‘qidim, - imo-ishoralar bilan tushuntirdi eshitish va gapirishida nuqsoni bo‘lgan birinchi guruh nogironi Mohira Shermatova. – May oyida shu korxonaga ishga kirdim. Bu yerda biz ishchilar uchun barcha sharoitlar bor. Bepul tushlik, ishga qatnash uchun maxsus transport tashkil qilingan.

- Kollejda hisobchilik yo‘nalishida o‘qiganman, - deydi tumanning Nog‘oraxona mahallasida yashovchi Visola Ashurova. – Qariyb o‘n yildan beri ishsizlik muammosi qiynardi. Tumanimizda yirik tikuvchilik fabrikasi ochilganini eshitib, bu yerga ish so‘rab keldim. Rahbariyat iliq kutib oldi. Korxonada mehnatga yarasha haq to‘lanishi menga ma’qul keldi. Ish boshlaganimda 1 million 400 ming so‘m maosh olardim. Mana oradan 6 oy o‘tib, 2,5 million so‘m olyapman. Ishchilarning madaniy hordiq chiqarishlari uchun ham imkoniyatlar yaratilgan. Vaqti-vaqti bilan taniqli san’atkorlar ishtirokida konsert dasturlari tashkil etiladi.

Kelgusida korxona faoliyati yanada kengaytirilib, yil oxirigacha ishchilar sonini 500 nafarga yetkazish maqsad qilingan. Bu ishlab chiqarish quvvati ham qariyb ikki baravarga oshadi, degani.

To‘lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Tomorqada yetishtiriladigan eng daromadli o‘simlik qaysi?

Yerdan ko‘proq foyda olishda eng daromadli ekin qaysi deb o‘ylaysiz? Kimdir meva yana kimdir sabzavot yoki boshqa ekinlarni tanlaydi va bu ularning tajribasi yoki tasavvuridan kelib chiqiladi. Mutaxassislar esa yuqori daromadli ekin yoki o‘simlikni gektaridan olinadigan emas , balki metr kvadrat maydondan olinadigan foydasiga qarab daromadliligini aniqlaydilar.

Misol uchun, ayrim qimmatbaho mevali daraxtlar ham bir metr kvadrat maydonda joylashadi, biroq ularning soyasi va ildizi ancha katta maydonni egallaydi. Shu bois agrar soha mutaxassislari gulchilikni eng samarali o‘simlik, deb hisoblaydilar.

Respublikamizda gulchilik, ko‘chatchilikni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy gul navlarini parvarishlash, aholi o‘rtasida gulchilikni ommalashtirish, bu bo‘yicha importni qisqartirish, eksport salohiyatini oshirish borasida katta imkoniyatlar bor.

Qishloq xo‘jalik vazirligi, “Agrar soha ayollari” uyushmasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi bilan hamkorlikda Germaniya taraqqiyot banki va Biznes va finans konsalting GmbH moliyaviy ko‘magida respublika hududlarida “Zamonaviy texnologiyalar asosida manzarali o‘simliklar va gul yetishtirish, ushbu yo‘nalishda biznesni tashkil etish” mavzusida ikki kunlik seminarda bu sohadagi imkoniyatlar tushuntirildi.

- Seminarda asosan uyda o‘tirgan xotin-qizlar uchun uy sharoitida kichik maydondan unumli foydalangan holda gul yetishtirish orqali yaxshigina daromad topish usullari o‘rgatilmoqda, - deydi O‘zbekiston “Agrar soha ayollari” uyushmasi raisi Adiba Ahmadjonova. – Seminarda manzarali o‘simliklar yetishtirish, gulchilik borasidagi agrobiznesni tashkil qilish, biznes reja tuzish, kreditlarni moliyalashtirish yo‘llari o‘rgatiladi. Masalan, hisob-kitob qiladigan bo‘lsak, bir kvadrat metr joyda 450-500 tagacha mavsumiy gul ko‘chati tayyorlash mumkin. Gul ko‘chatining eng arzoni o‘rtacha 2000 so‘mdan hisoblaganimizda ham bir millionso‘m daromad olinadi. Agar xonadonlarimizda ikki sotixli maydonda bu ishni yo‘lga qo‘yib ham yaxshigina daromad olish topsa bo‘ladi. Buning uchun katta va zamonaviy issiqxona qurish shart emas, faqat himoyalangan ixcham issiqxonalarda ham tashkil etish mumkin. Bu ishni asosiy daromad yoki qo‘shimcha ish sifatida ham yetishtirsa bo‘ladi.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.

KIBERJINOYAT ULAR SODDALIGIMIZDAN FOYDALANADI

U jinoyatning hech kimning xayoliga kelmaydigan usulini o‘ylab topdi. Dastlab samarqandlik mashhur ishbilarmonlar va ularning atrofidagi odamlar haqida ma’lumot to‘pladi, intervyu va suhbatlarini kuzatib, har birining xulq-atvori hamda muomaladagi o‘ziga xos jihatlarini o‘rgandi. Keyin ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilgan suratlaridan foydalanib, telegramm messenjerida yangi sahifalar ochdi va....



Samarqandlik 20 yoshli bu yigit jinoiy g‘oyasi amalga oshishiga o‘zi ham ishonmaganligini tan oldi. Lekin u telegramdan ishbilarmonlarning xodimlariga “Xarajat chiqib qoldi, tez shu bank kartasiga tashla”, deya xabar yuborishi bilan pullar “oqib” kela boshladi. Bir necha daqiqada 43 million so‘m. Agar u vaqtida qo‘lga olinmaganida, bu raqamlar ancha “semirishi” turgan gap edi.

Viloyat ichki ishlar boshqarmasi tezkor qidiruv xizmati kiberxavfsizlik xizmatidan olingan ma’lumotga ko‘ra, viloyatimizda sodir etilgan kiberjinoyatlar o‘tgan yilning shu davriga qaraganda 1,5 barobarga oshgan. Boshida fuqarolarimiz ko‘proq chet ellik xakerlardan jabr ko‘rgan bo‘lsa, bugun shu turdagi jinoyatlarda mahalliy “uddaburon”larning ulushi ortib bormoqda. To‘g‘ri-da, xalqining odatlari, soddaligi va boshqa nozik taraflarini yaxshi bilsa, pulni begona qilishning nima keragi bor?!

Soddaligimiz aniq. Mavzu doirasidagi kuzatuv va suhbatlar chog‘ida ma’lum bo‘ldiki, hali ham ko‘pchilik kiberjinoyat, deganda faqat telefon qilib, o‘zini bank xodimi sifatida tanishtiradigan firibgarlarni tushunadi. Bilishsa-da, o‘shalarning tuzog‘iga tushayotganlar ham oz emas ekan. Shu bois maqolada mavzuga kengroq yondashishga, ko‘proq foydali ma’lumotlarni jamlashga harakat qildik.

Aytish joizki, bugun kiberjinoyatchilik faqat xakerlikdan iborat emas. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko‘plab jinoyatlarni o‘zida birlashtiradi. Ayni sohada imkoniyatlar kengligi kiberjinoyatchilik va uni sodir etuvchi kimsalar doirasi yildan yilga kengayib borishiga xizmat qilmoqda. Unga virtual tarmoqda virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlarni tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), mualliflik huquqini buzish, kredit kartalari raqami va bank rekvizitlarini o‘g‘irlash, bank plastik kartalaridan pul mablag‘larini o‘zlashtirish, fuqarolarning ishonchiga kirish orqali shaxsga doir ma’lumotlar (boshqa shaxslarga oshkor qilib bo‘lmaydigan suratlar va videolar)ni qo‘lga kiritish orqali pul talab qilish holatlarini misol sifatida keltirish mumkin. Bunda jinoyatchilarning maqsadi bir - e’tiboridagi obyektlarga moddiy va ma’naviy zarar yetkazish.

Xo‘sh, yurtimizda, xususan viloyatimizda qanday kiberjinoyatlar ko‘proq sodir etilmoqda? Kiberxavfsizlik xizmati ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda samarqandliklar yuqorida ta’kidlaganidek, asosan telefon qo‘ng‘iroqlari orqali bo‘layotgan firibgarliklardan aziyat chekmoqda. Ya’ni, o‘zini to‘lov tashkiloti yoki bank xodimi sifatida tanishtirgan jinoyatchilar turli xildagi bahonalar bilan fuqaroning qo‘l telefoniga kelgan “SMS” xabardan “tasdiqlash kodi”ni olish orqali ularning bank kartalaridagi pul mablag‘larini o‘zlashtirish yoki fuqarolarning nomiga onlay kredit rasmiylashtirishga muvaffaq bo‘lyapti.

Yana bir keng tarqalgan usul, ijtimoiy tarmoq yoki onlayn savdo platformalarida fuqarolarni “sotuvchi” yoki “xaridor” sifatida aldash hisoblanadi. Sxema oddiy, tovar yoki xizmat uchun pulni oldindan to‘laysiz, biroq hech qanday mahsulot ham, xizmat ham olmaysiz. Bu usul soxta profillar orqali intim xizmatlarni taklif qilayotgan firibgarlar orasida, ayniqsa, mashhur. Misol uchun, joriy yilning avgust oyida Samarqand tumanida istiqomat qiluvchi fuqarolardan biri aynan shu yo‘l bilan 100 nafarga yaqin fuqaroni aldab, har biridan 100 mingdan 1 million 300 ming so‘mchaga pul olgan. Kishi boshiga o‘rtacha 600 ming so‘mdan hisoblaganda ham 60 million so‘m bo‘ladi.

Qiziq tomoni, bunday “noqulay” sharoitda aldanganlar ichki ishlar idoralariga murojaat qilishni o‘ylamaydi ham. Bu firibgarlar uchun ayni muddao.

Fuqarolarni virusli ilovalarni yuborish. Bunda fuqaro ushbu virusli ilovani qo‘l telefoniga o‘rnatganidan so‘ng qurulmani masofadan nazorat qilish orqali “SMS” xabardagi tasdiqlash kodlarini ko‘rish va shaxsiy ma’lumotlarning nusxasini ko‘chirib olish, onlayn birja va treyding faoliyati bo‘yicha sohta platforma hamda moliyaviy piramidalarga sarmoya kiritish orqali chuv tushirish holatlari ham ko‘p uchraydi.

Kimlar ko‘proq kiberjinoyat qurboniga aylanadi, bilasizmi? Kiberxavfsizlik xizmati bu savolimizga ham javob berdi. Unga ko‘ra, asosan bank kartalaridan xavfsiz foydalanish hamda axborot texnalogiyalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilmaydigan fuqarolar ayni jinoyat “qurbon”i bo‘ladi. Firibgarlar tuzog‘iga tushib qolmaslik uchun ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan turli virusli ilovalarga kirmaslik (misol usun, sud qarori. apk, videolaring.apk. yordam.apk, yangi_bank.apk va boshqa), notanish veb-sayt va platformalarda shaxsga doir ma’lumotlarni kiritmaslik tavsiya etiladi. Shunga qaramay, kiberjinoyatdan jabr ko‘rgan bo‘lsangiz, tezda "102" qisqa raqami yoki ichki ishlar idorasiga kelgan holda ariza berishingiz lozim.

Asqar BAROTOV tayyorladi.

To‘yxat o‘rnida

Obloqul aka Nurotaning Toshquduq qishlog‘ida o‘tgan bolalik chog‘larida dunyoga taniqli olim bo‘laman deb sira o‘ylamagan edi, lekin yaylovlardan o‘tgan yuqori kuchlanishli simlar atrofidagi ko‘pchilik ilg‘amas holatlarni, o‘sha payt-da qishloq uchun inqilob sanalgan generatorlarning ishlash jarayonini ko‘rib, hayratga tushardi. Ehtimol, shu ishtiyoqi tufayli, o‘rta maktabdayoq u fizika fanidan oliy ta’limda o‘tiladigan kitoblarni izlab o‘qishiga sinfdoshlari ham hayratlanmay qo‘ygandi. Oddiy magnit maydonida nimalar bo‘lishini olimlar allaqachon ixtiro qilishgan, biroq, shu maydonga kirgan jismlar o‘z xususiyatini butunlay o‘zgartirib yuborishini o‘rganish naqadar foyda ekanligini anglab yetdi, ahdida qat’iy turdi.

Kiroyi olim shunday bo‘lsa

Professor Obloqul Quvondiqov siyratiga chizgilar

O.Quvondiqov qat’iyati Samarqand davlat universitetida o‘qish jarayonida yanada mustahkamlandi, magnitizm hodisalarining hayrati uni tamoman o‘ziga rom etgan edi. Shuning uchun universitetda olgan ta’limi, ishtiyoqi olimlar nazariga tushdi va u fakultetda ishga olib qolindi. Yosh mutaxassisni qattiq jismlarning magnitizm jarayonidagi o‘zgarishlari ko‘proq qiziqtirdi. Negaki, metallar va ularning qotishmalarining bu maydondagi o‘zgarishlari ularning yangi xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Bu esa oddiy metaldan foydalanish samarasini oshiradi.

O.Quvondiqov aynan ana shu mavzuni puxta o‘rgandi. Moskva davlat universitetida aspiranturada o‘qish jarayonida yirik olimlardan bu borada ko‘p narsani o‘rgandi, 1973-yilda aynan magnitizm sohasining iqtidorli mutaxassisi, fan nomzodi sifatida qadrdon dorilfununiga qaytdi va hozirga qadar shu yerda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ishtiyoqi baland olim nufuzli oliy o‘quv yurtlarida ko‘rgan tajribalarini Samarqandda joriy etishga kirishdi, metallar, ularning qotishmalarining fizikaviy xossalarini qattiq, suyuq va amorf holatlarida o‘rganishga mo‘ljallangan 10 ta ilmiy tadqiqot qurilmalarini ishga tushirdi. Domlaning tashabbusi bilan SamDUda magnitizm bo‘yicha yangi mutaxassislik yo‘nalishi ochildi. Bir so‘z bilan aytganda O.Quvondiqov fizika fani yo‘nalishida o‘z maktabiga asos soldi, lekin bu bilan to‘xtab qolmadi. 1992-yilda Moskvadagi Qora metallurgiya universitetida aynan shu sohada o‘tkinchi va siyrak yer elementlari va qotishmalarining elektr, magnit va galvano magnit xossalarini o‘rganib, bir yo‘la ikkita mutaxassislik, ya’ni qattiq jismlar fizikasi hamda magnitizm bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Fizika fanidagi bu jarayonning xalq xo‘jaligiga shitob bilan kirishi domlani rag‘batlantirdi, qolaversa, bunday ishlar xalqaro ilmiy jamiyatlarda ham katta qiziqish uyg‘otdi. Obloqul akaning tashabbusi bilan bu mavzuda o‘nga yaqin xalqaro hamda respublika konferensiyalari uyushtirildi. Darvoqe, ulardan yana biri yaqinda o‘tkazilishi mo‘ljallangan. Muhimi, domla va u kishining shogirdlari aynan qattiq jismlarning magnitizm jarayonidagi o‘zgarishlaridan foydalanish bo‘yicha xalq xo‘jaligiga ko‘plab takliflar berdilar. Tinib-tinchimas olim o‘tgan muddat davrida ko‘plab darslik va qo‘llanmalar yaratdi. Bunday kitoblar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham yuksak baholandi. 1919-yilda esa uning



"Innovatsion texnologiyalardan fizikani o‘qitishda qo‘llanish metodikasi" o‘quv qo‘llanmasi Oliy ta’lim vazirligi o‘tkazgan tanlovda g‘olib deb topildi.

O.Quvondiqov tug‘ma ziyoli, kamtarligi, kasbiga sadoqati, ayniqsa, fizik hodisalar yuzasidan ishtiyoq bilan gapirishi bois hurmatingizni qozonadi. Shu sababli shogirdlari ham o‘zi singari tadqiqotlarga chinakam mehr qo‘yishgan. Binobarin, bir nafar fan doktori, 20 ga yaqin fan nomzodlariga rahbarlik qilish oson ish emas. Hozir ham u kishi tayanch doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarga magnitizm sohasi mo‘jizalari sirlarini o‘rgatmoqda. Professor O.Quvondiqov ko‘plab rag‘batlarga sazovor bo‘lgan odam. Kamtarligi bois ularni oshkora qilmaydi. Juda ko‘p ilmiy kengashlar a’zosi.

U kishi ko‘pchilik havas qiladigan yuksak mukofotga sazovor inson. Turmush o‘rtog‘i Omonoy yanga bilan olti nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Quvonchlisi shundaki, bu solih farzandlarning barchasi fidoyi ota izidan borishdi. Eshonqul fizika-matematika, Zokirjon huquqshunoslik fanlari nomzodi, Shuhratjon iqtisod fanlari doktori, Shokirjon tarix, Bolbuvi biologiya, Nilufar esa chet tili bo‘yicha falsafa doktori bo‘lish arafasida.

85 yoshni qarshilayotgan ustozning bugungi g‘ayratiga, shijoatiga, safdoshlar o‘rtasidagi salohiyatiga havas qilamiz va shunday ustozimiz borligidan g‘ururlanamiz. Tabarruk yoshingiz muborak bo‘lsin, ustoz!

Ilhomjon SUBXONQULOV,
Nurliboy HAMROYEV,
SamDU dotsentlari.

Huquqiy savodxonlik

Nogironligi bo‘lgan xodim xizmat safariga borishga majbur emas



Qonunchilikka ko‘ra, I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi lozim.

Shuningdek, ular uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin 6 kunlik ish haftasida 6 soatdan, 5 kunlik ish haftasida — 7 soatu 30 daqiqadan ortib ketmasligi kerak.

Nogironligi bo‘lgan xodimlarni xizmat safariga yuborishga, tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga hamda dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilishga faqat ularning roziligi bilan, agar ushbu xodimlar uchun bunday ishlar tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tavsiyalarida taqiqlanmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlarga davomiyligi kamida o‘ttiz kalendar kunidan iborat yillik mehnat ta’tili beriladi va ular bu ta’tildan yilning o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtida foydalanishi mumkin. Bunday xodimni yillik mehnat ta’tilidan chaqirib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ish beruvchi I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimning xohishiga ko‘ra uning yozma arizasi asosida unga ish haqi saqlanmagan holda har yili davomiyligi o‘n to‘rt kalendar kunigacha bo‘lgan ta’til berishi shart.

I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlarning mehnatiga ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida haq to‘lash tegishli kasb va lavozimlardagi xodimlarga to‘liq ish vaqti davomiyligidagi miqdorda amalga oshiriladi.

Azizjon MELIKOV,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi katta mutaxassisi.

RAQS san’ati shaydosi



Shahzoda Abbosova bolaligidan san’atga mehr qo‘ydi. Raqsga bo‘lgan qiziqishi uni Samarqand shahridagi 3-bolalar musiqa va san’at maktabiga yetakladi. Bu yerda Charos Ibragimova, Ulug‘bek Orzuyev kabi ustozlaridan raqs sirlarini o‘rgandi. Respublika va xalqaro tanlovlarda qatnashib, yuqori natijalarga erishdi. Jumladan, “Dance batle”, “Super star KZ” va boshqa nufuzli xalqaro tanlovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Shahzoda erishayotgan yutuqlarida bobosi Mamasharif Murtazoyevning hissasi katta ekanligini aytadi.

- Bobom meni doimo moddiy, ma’naviy qo‘llab-quvvatlab keladi, - deydi u. – Bolaning har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib ulg‘ayishida raqsning o‘rni alohida ekanligini ta’kidlaydilar. Kelgusida ham turli nufuzli tanlovlarda g‘olib bo‘lishimni istaydi. Bundan ruhlanib, bobom va ustozlarimning ishonchini oqlashga intilyapman. Milliy san’atimizda o‘chmas iz qoldirgan Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Gulchehra Yusupova va Rushana Sultonova kabi raqs qirolichalarining izidan borib, soha rivojiga o‘zimning munosib hissamni qo‘shmoqchiman.

Ayni paytda Shahzoda Samarqand shahridagi 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchisi. U o‘tayotgan har bir daqiqaning qadriga yetadi. Har kuni maktab darslarini a’lo darajada bajarib, uy ishlarida onasiga qarashish bilan birga o‘zi sevgan raqs san’ati bilan shug‘ullanish uchun doimo vaqt topadi. U 20 ga yaqin millat raqslarini mohirona o‘rganmoqda. O‘tgan o‘quv yilida bolalar musiqa va san’at maktabini muvaffaqiyatli tamomladi. Endi esa shu yo‘nalishda oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish uchun tayyorlanmoqda.

Bahodir HAMROQULOV.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

MINNATDORMIZ!

Yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo, inson qadri, turmush tarzi yaxshilanishiga katta e’tibor berilmoqda. Yaqinda bir guruh mahalladoshlar Samarqand viloyati transport boshqarmasiga yangi yo‘nalish ochish va ushbu yo‘nalishga avtobus qo‘yish bo‘yicha murojaat qildik. Murojatimiz bee’tibor qolmadi yangi yo‘nalish ochilib, avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Uzog‘imiz yaqin bo‘ldi.

Samarqand shahri O‘rta Xo‘jasoat mahallasi ahli nomidan boshqarma rahbariyati va xodimlariga minnatdorlik bildiramiz. Sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, amalga oshirayotgan xayrli ishlaringizda omad tilaymiz.

Mo‘mina GULYAMOVA,
Samarqand shahri.

* * *

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Muxtarov Rustam Xaydarovichga (2024-yil 24-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Almasov Almas Zeynalovichga (2024-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 132-uy, 2-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ishkulova Nazokat Abdualimovnaga (2024-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Abdullayev Axror Xabibovichga (2007-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Mirzabayeva Tozabuvi Nishanovnaga (2023-yil 30-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 13-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qo‘shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Raximbayev Vaxid Istamovichga (2024-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qo‘shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 67-“J” uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Mamasafarov Bobirjon Sultonbekovichga (2024-yil 20-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 13-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Mukumov Siroj Primovichga (2021-yil 24-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Karimov Subatga (2015-yil 4-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Rustamov Mamasidiqga (2024-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Islamov Ummatga (2024-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.

* * *

Kattaqo‘rg‘on tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xoliqov Jamshid notarial idorasida marhum Zakirov Yuldash Tirkashevichga (2021-yil 22-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xoliqov Jamshid notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Kattaqo‘rg‘on tumani Kadan qorg‘oni.

* * *

Kattaqo‘rg‘on shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Ayub Toxirjonovich notarial idorasida marhum Ixtiyarov Irgashga (2020-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Ayub Toxirjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Kattaqo‘rg‘on shahri Alisher Navoiy ko‘chasi, 148-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Marhum Ixtiyarov Irgashga tegishli Kattaqo‘rg‘on shahri Shavqiy ko‘chasi, 16-uy, 6-xonadonning kadastr hujjatlari hamda boshqa yuridik hujjatlari yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “SAM EVRO OSIYO” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311206488) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “PREMIUM BEST CRUSHER” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307253638) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

QARNABOTA g‘orida qanday sinoat yashirin?



“Ziyovuddin tog‘larining janubiy yonbag‘rida yashovchi aholi orasida mevalarning toshga aylanib qolganligi haqida afsona bor. Ular Gunjak g‘oridagi (bu g‘or Qarnabning shimoli-g‘arbida joylashgan) stalaktitlarni ayni afsonaning saqlanib qolgan yodgorligi deb bilishadi. Unga ko‘ra, Shaddod ismli podshoh o‘z gunohlarini yuvish uchun shu yerda sun’iy bog‘ yaratgan. Go‘yoki bog‘ning daraxtlari, barglari, gullari va mevalari chaqnab (yonib) turadigan va rangli toshlardan qilingan. Eski vaqtda yasalgan qimmatbaho toshlarni mahalliy zargarlar “Shaddod bog‘i”ning qoldiqlari deb hisoblaydi...”.

Bu qisqa ma’lumot 1956-yilda nashr etilgan “O‘rta Osiyoning geologik o‘rganish tarixiga oid bayonotlar” asarida keltirilgan. Ta’riflanayotgan g‘or Paxtachi tumanining Qarnabota qishlog‘idan 10 kilometr uzoqlikdagi To‘ritog‘ bag‘rida joylashgan. Turli manbalarda uni Gunjak, G‘ori Oshiqon, Qarnab Ota singari nomlar bilan atashadi va u bilan bog‘liq afsonayu rivoyatlar ham talaygina.

Zarnews.uz jamoasi yurtimizning hali to‘liq o‘rganilmagan, o‘ziga xos va betakror manzillari bo‘ylab ekspeditsiyasini davom ettiradi. Anglaganingizdek, navbatdagi manzilimiz sirli Qarnabota g‘ori.

CHO‘L O‘RTASIDAGI CHAMAN

M37 avtomobil yo‘lidamiz. Yo‘l boshlovchi ilova Paxtachining Ziyovuddin shaharchasiga yetmasdan chapga burilishni buyurdi. Shu yo‘nalishda naqd 30 kilometr yursak, manzilga yetib boramiz. Qiziq tomoni, bir necha kilometrdan keyin aholi punkti tugaydi. Xayolan bepoyon cho‘lga kirib borayotgandek bo‘lasiz. Yon-atrofda biror jon, imorat yoki yashillik yo‘q.

Qarnabota tumanning eng olis hududlaridan biri. Qarnabota va Chashma mahallalaridan iborat qishloqning to‘rt tomoni bepoyon dashtlik. Tuman markazi va qo‘shni Navoiy viloyatidan 35 kilometr, Nurobod tumanidagi Sahoba qishlog‘idan 30 kilometr masofada joylashgan.

— Qishlog‘imiz 3 ming yillik tarixga ega, - deydi Qarnabota mahallasi raisi Uchqun Begmatov. – Qishloqning o‘rtasida Qo‘rg‘ontepa yodgorligi joylashgan. Uni o‘rgangan olimlarning aytishicha, qadimda ota-bobolarimiz kunduzi chorvachiligu dehqonchilik qilib, kech tushganda shu qo‘rg‘onga kirishgan va dushmanlar, bosqinchilardan himoyalanishgan. O‘rta Osiyodagi eng birinchi masjid ham shu yerda qurilgan ekan. Mazkur masjid yodgorligini o‘rganish bo‘yicha ishlar boshlanish arafasida. Hududimizda boshqa tarixiy-madaniy yodgorliklar ham ko‘p.

Albatta, Qarnab qishlog‘i juda qadimiy, tabiati og‘ir manzillardan biri. Uning tarixi Samarqand, Buxoro tarixidan kam emas. Bu haqda tarix sahifalarida ko‘plab asarlarni ko‘rsa bo‘ladi. Jumladan, Qarnab, uning tarixi, qishloq atrofidagi qadimgi qalay konlari, yer osti boyliklari, chorvachilikning ilg‘or tajribasi haqida o‘tgan asrning 50-yillarida olimlar, jumladan, filologiya fanlari doktori, professor N.Rajabovning "O‘zbek tilining qarnab shevasi" (S:1959-yil) mavzuidagi ilmiy ishi, P.M.Kulangiyev, S.A.Veysbmomlarning "Передовой каракулеводческий колхоз "Leninchi-chorvador” (T:1955-yil) asari, B.A.Litvinskiyning "К истории добичи олова в Узбекистане" (T:1950-yil) kitoblarida ma’lumotlar keltirilgan.



Qarnab qishlog‘i Buxoro amirligi davrida Karmana bekligi tarkibiga kirgan aholi punkti bo‘lib, bu haqda ilmiy dalillar yetarli.

Yana bir manba: akademik B.Valixo‘jayev va professor B.O‘rinboyevning “Bobo Xudoydodi Vali” risolasida shayx Xudoydodi Vali (XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan tasavvuf shoiri, Vali bobo sifatida shuhrat qozongan)ning Qarnobda (Qishloqning asl nomi Qarnob bo‘lib, aholisi qarnobiy (qarnoblik) deb yuritilgan. Keyinchalik so‘z shakli biroz o‘zgarib, manzil “Qarnab” shaklida qo‘llangan, aholisi esa qarnabiy (qarnablik) deb atalgan) bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Unda keltirilishicha, shayx Qarnobga tashrif buyurib, bu yerdagi nohaqliklarni ko‘rib, achinadi. Bekning xalqqa qilgan zulm-sitamlaridan darg‘azab bo‘ladi. Qishloq oqsoqollari maslahatiga ko‘nib, qarnobliklarni bu mushkul ahvoldan qutqarish uchun Buxoroga boradi.

Shaharda qizg‘in davom etayotgan tantanali saylda ishtirok etadi. Keng maydonda bellashayotgan polvonlarni ko‘rib, g‘ayrati jo‘shadi. Katta saylda yelkasi yerga tegmagan mashhur polvonni yiqitadi. El hurmatiga sazovor bo‘lgan Xudoydodi Valini huzuriga chaqirgan Buxoro hukmdori uni rag‘batlantirish maqsadida orzu-tilagini so‘raydi. Molu dunyo hirsidan uzoq, yaxshilik yo‘lida jonini ham ayamaydigan Xudoydodi Vali Qarnabdagi og‘ir vaziyatni, bekning zulmidan el ozor chekayotganini aytib, qo‘rg‘onda tartib o‘rnatilishini iltimos qiladi. Hukmdor g‘olib polvonning talabiga ko‘ra, Qarnob begini qattiq jazolaydi. Shu tariqa qishloqda adolat o‘rnatiladi.

Ayrim tarixchilarning ta’kidlashicha, qadimda bu qishloq savdogar va askarlar uchun muhim qo‘nalg‘a vazifasini o‘tagan. Balki biz u yerga transportda oson yetib borgandirmiz, lekin qadimda tuya yoki otda yo‘lga chiqqan ajdodlarimiz uchun bu qishloq cho‘l o‘rtasidagi chaman kabi bo‘lganiga shubha yo‘q.

Qarnab nafaqat o‘tmishi, balki hududidagi tabiiy boyliklari bilan ham e’tiborli. Qarnab atroflari o‘tgan asrning 1945-yilidan boshlab avval geologiya va minerologiya yo‘nalishida o‘rganilgan. 1957-yilda Qarnab ruda konlari ishga tushgan, cho‘l zonasida 100 dan ortiq qazilma boyliklari (kassiterit, arsenaperit, pirit, sfalerit, seritsit, turmalin, kaolin, xalkoperit, galenit, fmoorit, sirkon, sfen, rutil limanit va boshqa) zaxiralari borligi aniqlangan. Ruda konlaridagi qazishmalarda kvars materiallari, qora kulrang kvars bilan birga sfalerit topilgan.

Bugun Qarnabota qishlog‘ida 5600 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishloq vrachlik punktidan tashqari o‘z kichik shifoxonasi, 3 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktabi va musiqa maktabi bor. Hududda savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlangan. Odamlari ham favqulodda ishbilarmon, asosiy daromadni chorvachilik, tadbirkorlik va konchilikdan qilishadi.

G‘ORDA AMIR OLIMXON NIMA QILGAN?

G‘or xususida ko‘proq afsonayu rivoyatlar orqali ma’lumot olish mumkin. Ayrim manbalarda u Amir Temur nomi bilan bog‘lansa, boshqalari undan ham qadimgi voqealarni hikoya qiladi.

Jumladan, Nizomuddin Ibn Sadruddin Buxoriyning tarix fanlari doktori Mahmud Hasaniy tomonidan tarjima qilingan “Qarnab oto g‘ori” risolasida by joy G‘ori Oshiqon va Maqomi Ma’suma deyilishi hazrati Muso alayhissalomning ummatlaridan biri Xoja Humoy G‘oriyning manzili ekanligi bilan bog‘lanadi. Unga ko‘ra, Muso alayhissalom aynan shu yerda Allohning jamolini ko‘rgan.

Manbada “As’ad al-Buxoriydan rivoyat kilinadi, u Anas ibn Molik roziyallohu anhudan, u Rasul sallallohu alayhi va sallamdan, u Jabroil alayhis salomdanki, aytdi: "Turkiston diyorida bir joy bor. Bayt ul-Muqaddas, Ka’ba, Bayt ul-kirom, Masjidi Axzar, Turi Sinoni istisno qilganda, bu muborak joy har bir joyga nisbatan quyoshdan ham, oydan ham nurliroqdir, u G‘ori Oshiqon deb ataladi, barcha ustunlardan ustun va uning asli Tur tog‘idagi ikki g‘ordan biri bo‘lib, Qarnab Ato tomondadir”, deyiladi. Katta ehtimol bilan gap shu g‘or haqida ketmoqda.

Paxtachilik adabiyotshunos va tarixnavis Ismat Sanayev esa o‘zining “Qarnabota” nomli maqolasida bu yerlarni ulug‘ sarkarda Amir Temurning poyqadami bosilgan muborak zamin, deydi. Unda qayd etilishicha, Nizomiddin Shomiy Amir Musoning Amir Husayn tomoniga qochganligi va lashkar tortib Amir sohibqiron ustiga kelganligi xususida quyidagilarni bayon qilgan: "Amir Husayn (yuqorida aytilgan) ahvoldan xabardor bo‘lgach, Amir Muso, Uljoytu, Jahonshoh va Pulod Bug‘olarni jo‘natdi. Ular Tangi Chakchakka yetdilar. Qahlag‘a va Tangi Chakchak o‘rtasida kelib tushdilar. Jang tayyorgarligini ko‘rib, dushmanlik kamarini jon beliga bog‘laydilar. Ularning xabari Amir sohibqironga yetgach, kutilmaganda hujum qilish uchun o‘sha tomonga ravona bo‘ldi. Ulug‘lik egasi Tangri hazratiga tavakkal qilib, yog‘iyni izlab Yalg‘uzbog‘ yo‘lidan qor kechib Qarnobdan o‘tdi. Bir necha kishini yuqori yo‘ldan ayg‘oqchilik qilish uchun jo‘natdi. Ular borib yog‘iyni o‘rganib, dushmanlardan yigirma kishini ushladilar. Qo‘lga tushganlardan g‘animlar tunda Tangi Chakchakdan o‘tib, Jigdolikka tushganlarini bilib oldilar". (“Zafarnoma”. "O‘zbekiston". Toshkent, 1966, 61- bet).

Biz ekspeditsiya vaqtida g‘or haqida mahalliy aholidan ham so‘radik. Ular bobolaridan bu yerga Amir Olimxon kelgani va g‘or ichiga kirgani haqida eshitganini aytishdi. Shundan keyin ko‘p yillar aholi tog‘ tepasidagi tuynukdan g‘orga oziq-ovqat tushurib turgan ekan. Keyinchalik bu ishlar unut bo‘lgan. Amir Olimxon g‘orga nima sababdan kelgani va nega u yerga oziq-ovqat tushurib turilgani haqida aniq ma’lumot yo‘q.

G‘OR ICHIDAGI BULUT, TILLARANG DEVORLAR...

G‘or tomon bepoyondek ko‘rinadigan kengliklarni kezib borasiz. Yo‘lingizni sel oqib o‘tgan “anhor”lar to‘sib, harakatni qiyinlashtiradi. 11 kilometr masofani bosib o‘tishimiz uchun transportda yarim soat sarfladik.

Odatda, g‘orlar og‘zi yonga qaragan bo‘lib, ularga kirish nisbatan qulay bo‘ladi. Biroq bu g‘orga o‘z vaqtida faqat tepadan, tog‘ ustidagi tuynukdan, arqon yordamida tushilgan ekan. O‘sha tuynukni ham mahalliy cho‘ponlardan boshqa odamning topishi amrimahol. Biz foydalangan, yon tomondagi kirish joyi esa keyinchalik sun’iy hosil qilingan. Bir necha yuz metrli ushbu tuynukni ochish oson bo‘lmagani aniq. Chunki undan o‘tib borarkanmiz, yo‘l toshni yo‘nish orqali ochilganiga guvoh bo‘ldik. Bu ish qachon va nega qilingani haqida ham ma’lumot yo‘q.

G‘orning ichi ancha keng. Tepadagi g‘ira-shira yorug‘lik o‘tkazadigan tuynukdan oqib tushgan suv asrlar davomida devorlarda o‘ziga xos naqshlar chizgan. Tomchilar yig‘ilishidan yuzaga kelgan suv yo‘lagi g‘orning zulmat qoplagan bag‘riga qarab ketadi. Qarnablik keksalarning aytishicha, g‘or tubidagi bu ariqchadan ilgari qishin-yozin suv oqib turgan.

Fop shiftida osilgan sumalaksimon ohaklar o‘ziga xos bir joziba kashf etgan. Tabiatning bu g‘aroyib mo‘jizasiga tikilar ekansiz, zulmat qa’rida bulutlar sizib yurgandek tuyuladi. Har bir tosh yorug‘lik shu’lalari ostida turlicha jilolanadi. Tillarang devorlar bu manzaraga ulug‘lik baxsh etadi.

G‘or ichidagi keng maydonda bir vaqtning o‘zida yuzlab odamni sig‘dirish mumkin. Uni o‘rganayotib, pastga qarab ketgan yana bir yo‘lakka ko‘zimiz tushdi. Biroz yurib bildikki, g‘orning asosiy qismidan 30 metrlar pastda yana bir o‘tish joyi bor. Bu biz uchun ham yangilik bo‘ldi. Sababi manbalarda g‘orning davomi borligi haqida aytilmagan. Odatda, g‘orlar qayerdadir tugaydi. Yaxshi o‘rganilmagan va oxiriga borilmagan bu kabi g‘orlar esa sanoqli. Qashqadaryodagi Tarag‘ay g‘origa uyushtirgan ekspeditsiyamizda ham shunday holatga duch kelgan edik.

Afsuski, g‘or ichiga qarab yurishni shu joyda to‘xtatishga majbur bo‘ldik. U yog‘i harakatlanish uchun xavfli, tavakkal qilish yaxshi oqibatlarga olib kelmasligi aniq.

G‘ordaligimizda bir qiziq holatni payqadik. Tashqari salqin bo‘lsa, g‘or ichiga kirib borishimiz barobarida havo harorati ham ko‘tarilib bordi. Haroratdagi bu o‘zgarish biz oldin borgan g‘orlardagidan ancha yuqori. Katta ehtimol bilan jarayon g‘or tubida yashiringan sinoat bilan bog‘liq. Buyog‘i olimlarimiz e’tiboriga havola.

ILMIY MANBA IZLAB...

Qarnabota manzili tarixiy hujjatlar, ilmiy maqolalarda ko‘p marotaba tilga olingan. Lekin ularning asosiy qismi hududdagi qazilma boyliklar va tarixiy yodgorliklar haqida.

Surishtiruvlar davomida geografiya fanlari nomzodi, dotsent Madi Abdujabborov Samarqand g‘orlari, xususan, Qarnabota g‘ori bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgani haqida xabar topdik. Afsuski, olim 1991-yilda, ilmiy ishini himoya qilishga sanoqli kunlar qolganida olamdan o‘tgan ekan. Samarqand davlat universitetining geografiya va ekologiya fakultetida faoliyat yuritgan domlaning ayni izlanishlari natijalari saqlab qolinmagan. Biz manba uning farzandlarida qolganligiga umid bog‘lab, olim yashagan mahallaga ham bordik. Samara bo‘lmadi.

Umuman, mavzu yuzasidan ko‘p joyga murojaat qildik. Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand davlat universiteti geografiya va ekologiya fakulteti, arxeologiya kafedralari professor-o‘qituvchilari jarayonda bizga yaqindan ko‘mak berdi. Shunga qaramay, topilgan ma’lumotlarning deyarli barchasi umumiy xarakterga ega bo‘lib, ularda asosan Zarafshon vodiysi haqida gapiriladi. Ayrim manbalarga ko‘ra, 1972-yilda mazkur g‘orga “Krasnogorsk” ekspeditsiyasi tashkil etilgan. Shu haqda mas’ullardan ma’lumot so‘rab yuborgan xatlarimiz ham natija bermadi.

Jarayonda topganlarimizni o‘rtaga tashlaymiz: Jumladan, Samarqand davlat universiteti geografiya va ekologiya fakulteti dekani o‘rinbosari Elshod Eshmamatovdan olingan ma’lumotga ko‘ra, 2012-yilning yozida O‘zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining arxeologik guruhi Paxtachi tumani hududida qidiruv ishlarini olib borgan. Qarnab qishlog‘iga yaqin joydagi Chashma nomli qadimgi buloqning atrofida ibtidoiy odamlar yashashi uchun qulay joy bo‘lgan. Ammo bugungi kunda bu joylar tabiiy va antropogen ta’sirlar natijasida buzilgan. Shunday bo‘lsa-da, buloqning shimoliy chekkasida olib borilgan kuzatishlar natijasida qadimgi odamlar tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlar topilgan. Undagi materiallar o‘rta paleolitga oid Qo‘tirbuloq manzilgohi komplekslariga o‘xshashligi aniq bo‘lgan.

Yana bir manba – 2015-yil Dilfuza Jo‘raqulova muallifligida chop etilgan “Zarafshon havzasining ibtidoiy davr tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmada Zarafshon vodiysining jug‘rofik joylashishi, geologik yotqiziqlari, paleoekologiyasi, xullas, tabiati va iqlim sharoitlari haqida qisman bo‘lsa-da, tushunchalar berib o‘tilgan. Biroq unda ham Qarnabota manzili va g‘ori haqida aniq ma’lumotlar yo‘q.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi Nargiza Yusupovaning 2022-yilda o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyadagi “Ziyovuddin vohasi tarixini o‘rganishga doir ayrim mulohazalar” nomli ma’ruzasida Zarafshon vohasining o‘rta qismida – Zarafshon daryosining chap sohilida joylashgan, janubiy tomonidan Qarnab cho‘li o‘rab olgan Ziyovuddin vohasi tilga olingan. Unda keltirilishicha, Ziyovuddin vohasi bag‘rida o‘rta poleolit davriga mansub Qo‘tirbuloq, Zirabuloq yodgorliklari mavjud. Mazkur qadimiy yodgorliklardan topilgan tosh qurollar, hayvonlarning suyaklari Ziyovuddin vohasining 100 ming yoshdan oshganini isbotlaydi. Paxtachi tuman markazidan (Ziyovuddin sh.) 30 kilometr janubdagi Qarnab (Qarnabota) qishlog‘ining shimoli-sharqiy yo‘nalishida daradagi qoya toshda tog‘ takasining surati ishlangan. Uncha katta bo‘lmagan tosh ustiga chopayotgan yovvoyi tog‘ echkisining tasviri aniq o‘yib tushirilgan. Qoyatoshni birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olim G.V.Shaskiy quyidagi fikrlarni bildirgan: “Chuqur bo‘rttirib, yuqori darajada tasvirlanish nuqtai-nazaridan hamda hayvonning jo‘shqin holatda turishi, qoya toshdagi suratni inson hayotidagi ovchilik davriga nisbat berishga imkon beradi. Ehtimol, bu tosh asri asaridir”.



Ma’ruzaning biz uchun eng qimmatli joyi: “Qishloqning shimoliy-g‘arbi qismidan 10 kilometr uzoqlikda joylashgan Gunjak g‘oridan miloddan avvalgi III-II va milodning dastlabki asrlariga taalluqli xum, ko‘za qoldiqlarining topilishi, g‘orning chorvadorlar uchun maskan bo‘lganligini anglatadi. Qishloq atrofidagi Olloyor Ota, Burisheq, Qirbuloq Ota, Ho‘kizbaqirdi, Oqmozor Ota va Tollik kabi manzilgohlar ham chorvadorlarning tabarruk maskanlariga aylangan”.

Bu biz g‘orni o‘rganish davomida eshitgan, undan o‘yib ishlash orqali tushirilgan qadimiy yozuv va suratli toshlarning olib ketilgani haqidagi gaplar haqiqatga yaqin ekanligini anglatadi. Afsuski, bir necha oyga cho‘zilgan izlanishlar davomida ham bu toshlar kim tomonidan olib ketilgani va qayerda saqlanishini aniqlab bo‘lmadi.

Xulosa qilib aytganda, Qarnabota g‘ori hali ham o‘z sir-sinoatini hech kimga ochmagan. Jamoamiz tomonidan amalga oshirilgan ekspeditsiya esa ko‘proq ijodiy safar hisoblanadi. O‘ylaymizki, vaqti kelib, u o‘rganiladi va xalqimizning tarixi yana bir sahifa bilan to‘ldiriladi. Bu yurtimizning turizm salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini eslatishga hojat yo‘q, deb o‘ylaymiz.

Anvar MUSTAFOQULOV,
Asqar BAROTOV,
“Zarafshon”ning maxsus muxbirlari.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 30-noyabr, shanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 487 nusxada chop etildi. Buyurtma 624. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda